

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ICHKI NAZORATNI TASHKIL QILISH XUSUSIYATLARI

Quldosheva Xolisa Kamoliddin qizi
TDIU katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ichki nazorat tizimini xalqaro standartlar asosida samarali tashkil etish masalasi tahlil qilindi. COSO, COBIT, SAC va SAS 55 modellarining asosiy tamoyillari chuqur o'rganildi, milliy amaliyot bilan solishtirildi va zamonaviy sharoitlarga mos takliflar ishlab chiqildi. Tahlillar natijasida ichki nazorat tizimini takomillashtirish imkoniyatlari aniqlab olindi. Raqamli transformatsiya sharoitida axborot shaffofligi, xavfsizlik va risklarni boshqarish darajasining oshganligi kuzatildi. Natijada korxonalarda samarali va barqaror ichki nazoratni ta'minlashga erishildi.

Kalit so'zlar: ichki nazorat, xalqaro standartlar, COSO, COBIT, risk boshqaruvi, raqamli transformatsiya, samaradorlik.

Аннотация

В данной статье рассматривается организация системы внутреннего контроля на основе международных стандартов. Были проанализированы ключевые положения моделей COSO, COBIT, SAC и SAS 55, а также сопоставлены с отечественной практикой. Проведённый анализ показал, что интеграция международных подходов способствует улучшению прозрачности, надёжности и управления рисками в цифровую эпоху. Результаты указывают на повышение эффективности внутреннего контроля в условиях современной трансформации. На основе исследования предложены практические рекомендации по повышению устойчивости и управляемости в деятельности предприятий.

Ключевые слова: внутренний контроль, международные стандарты, COSO, COBIT, управление рисками, цифровая трансформация, эффективность.

Abstract

This article examines the organization of internal control systems based on international standards. Key principles of COSO, COBIT, SAC, and SAS 55 models were analyzed and compared with national practices. The findings indicate that integrating global approaches enhances transparency, reliability, and risk management in the digital age. As a result, internal control systems have shown improved efficiency under modern transformation conditions. Practical suggestions were developed to support sustainable and effective enterprise governance.

Keywords: internal control, international standards, COSO, COBIT, risk management, digital transformation, efficiency.

KIRISH

Hozirgi davrda nafaqat O‘zbekistonda balki butun jahon bo‘yicha korxonalar faoliyatini aks ettiruvchi ma‘lumotlarning yanada yorqinligi, korxonalar yakuniy natijasining samaradorligining yuqoriligi va ham iqtisodiy ham siyosiy kutilmagan zarbalarga bardoshlilikini ta‘minlab beruvchi tizim bu ichki nazorat tizimidir. Maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekiston hududida joylashgan korxonalaridagi mavjud ichki nazorat tizimidagi muammolarni xalqaro ichki nazorat modellarini joriy etish orqali bartaraf etish hisoblanadi. Ichki nazorat – bu tashkilotlar ichki siyosiy-iqtisodiy jarayonni nazorat qilish tizimi bo‘lib, asosiy vazifasi tashkilotlardagi axborotlarni rahbariyatga, boshqaruv organlariga o‘z vaqtida, aniq va shaffof yetkazish, korxonadagi yo‘qotishlar, kamchiliklarni kamaytirish qonunchilikka mos ravishda yuritilishini ta‘minlashdir.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, samarali ichki nazorat tizimi tashkilotning uzoq muddatli strategik rejalarini muvaffaqiyatini, samarasini ta‘minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, COSO (Committee of Sponsoring Organizations) modeli, COBIT (Control Objectives for Information and Related Technology), va SAC (Statement on Auditing Criteria) kabi modellar tashkilotlarda ichki nazoratni tizimli va barqaror shakllantirishda keng qo‘llaniladi (Kaplan & Norton, 1992; ISACA, 2020).

O‘zbekiston amaliyotida ham oxirgi yillarda ichki nazorat tizimining institutsional asoslarini mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Jumladan, Moliya vazirligining 2022-yildagi "Ichki nazorat siyosatini ishlab chiqish metodikasi" hamda Davlat moliyaviy nazorati qo‘mitasi qarorlari bu boradagi huquqiy asoslarni kengaytirgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqotda adabiyotlar tahlili, qiyosiy baholash va konseptual yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili asosida ichki nazorat modellarining struktura, funksional elementlar va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Adabiyotlar sharhi quyidagi guruhlariga ajratilib o‘rganildi:

I. Xalqaro manbalar:

- COSO (2013): ichki nazoratni risklarga asoslangan yondashuv bilan uyg‘unlashtirish tamoyillarini bayon etgan. Unga ko‘ra, nazorat muhitining mustahkamligi, risklarni aniqlash va baholash, nazorat faoliyatlari, axborot-kommunikatsiya tizimi va monitoring asosiy komponentlar hisoblanadi.

- Kaplan & Norton (1996): balanslangan ko‘rsatkichlar tizimi (BSC) orqali ichki nazoratning strategik boshqaruvdagi o‘rni yoritilgan.

- Spira & Page (2003): ichki nazorat va korporativ boshqaruv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq etgan.

- ISACA (2020): COBIT 2019 versiyasi asosida IT nazorati, axborot xavfsizligi va texnologik nazorat mezonlarini ishlab chiqadi.

II. Mahalliy manbalar:

• Jo‘raqulov S. (2024), Tursunov, B. (2024), Usmonov, B. (2025) va Khalikulova, Y. (2025): korxonalarda ichki nazoratni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalarni taklif etgan.

• To‘xtaboyev R. (2022), Burkhanov, A., (2020) va Omanov, S (2021): O‘zbekistondagi yirik ishlab chiqarish korxonalarida ichki nazorat tizimi samaradorligini baholagan.

• Moliya vazirligi hujjatlari (2022): davlat sektorida ichki nazoratning huquqiy va normativ asoslari, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga asosan ishlab chiqilgan tizimlar.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada quyidagi metodlar asosida tahlil olib borildi:

• Adabiyotlar tahlili: xalqaro va mahalliy normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va tahliliy hisobotlar asosida.

• Qiyosiy baholash: COSO, COBIT, SAC va SAS 55 modellari O‘zbekistondagi amaliyot bilan qiyoslandi.

• Konseptual yondashuv: nazorat tizimlarining konseptual asoslari struktura va funksiyalar darajasida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oxirgi vaqtlarda nafaqat milliy hisobda balki xalqaro miqyosda ham ichki nazorat tizimiga qaratilgan e’tibor o’sdi. Shu qatorda zamonaviy ichki nazorat tizimini aniqlash, baholash va yo‘nalishini aniqlash bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Quyidagi jadval bilan tanishtirib o‘tamiz:

1-jadval

Modellar turlari va ularning qisqacha izohi¹

Hujjat (model)	Qisqacha izoh
“Information texnologiyalarni qo‘llashda nazorat maqsadlari” standarti (Control Objectives for Information and Related Technology, COBIT)	ISACA axborot tizimi nazorati va auditi assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan (Information Systems Audit and Control Foundation’s Control Objectives for Information and Related Technology). Axborot tizimining xavfsizligi uchun nazorat majburiyatini bajarish samaradorligi va to‘liqligi uchun instrumentlarni o‘z ichiga oladi.
Doklad “Nazorat va audit tizimi” (Security access control, SAC)	Ichki auditorlar institutining ilmiy tadqiqot fondi tomonidan tayyorlangan (Institute of Internal Auditors Research Foundation’s Systems Auditability and Control). Axborot tizimi nazorati va auditi savollari bo‘yicha ichki auditorlarga tushuntirishlarni o‘z ichiga oladi.
Doklad “ichki nazorat: integrerli qarash” (COSO modeli – Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission)	TRIDUEYA komissiyasi homiylari qo‘mitasi tomonidan tayyorlangan (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission’s Internal control – Integrated Framework). Ichki nazorat tizimini zamonaviylashtirish, qo‘llash va baholash bo‘yicha maslahatlarni o‘z ichiga oladi.
Moliyaviy hisobot auditini o‘tkazishda ichki nazorat	Amerikaning diplomlashtirilgan buxgalterlar instituti tomonidan tasdiqlangan. (American Institute of Certified Public

¹ banker.ru saytida ilgari surilgan hujjatlardagi ichki nazorat tizimining konsepsiyalari

Hujjat (model)	Qisqacha izoh
tizimini tuzilishini ko'rib chiqish tartiblari (Statement on Auditing Standards 55, SAS 55)	Accountants' Consideration of the Internal Control Structure in a Financial Statement Audit). Hujjat auditorlarga moliyaviy hisobot auditini o'tkazishda icki nazorat tizimiga e'tibor qaratishni nazarda tutadi.

Manba: ichki nazorat tizimi konsepsiyalarini solishtirish

Hujjatlarni taqqoslash jarayonida shunday xulosaga keldikki, har bir hujjat o'zidan oldingi hujjatlarning fikrlaridan foydalangan.

Ichki nazorat tizimi bo'yicha hujjatlar har xil manba tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularda bir qancha farqli jihatlar mavjud. Har bir hujjat ichki nazorat tizimi va maqsadlar guruhiga qaratilgan.

E'tiboringizni banker.ru saytida ilgari surilgan hujjatlardagi ichki nazorat tizimining konsepsiyalari farqiga qaratamiz:

2-jadval

Ichki nazorat tizimining konsepsiyalari¹

Taqqoslash kriteriyalari	Tartibga soluvchi hujjat			
	COBIT	SAC	COSO	SAS 55/78
Asosiy maqsadli guruh	Menejment, foydalanuvchilar, axborot tizimi auditorlari	Ichki auditorlar	menejment	Tashqi auditorlar
Ichki nazorat	Korxonada tuzilishi, qabul jarayonlarini qo'shgan holda umumiy jarayon	Tizim ostidagi va insonlarni tekshirishda umumiy jarayon	jarayon	jarayon
Ichki nazoratning tashkiliy maqsadi	Samarali va natijaviy operatsiyalar. Maxfiylik, maqsadlilik va axborotlarning keraklilik. Ishonchli moliyaviy hisobot. Qonun va me'yoriy hujjatlarga e'tibor	Samarali va natijaviy operatsiyalar. Ishonchli moliyaviy hisobot. Qonun va me'yoriy hujjatlarga e'tibor	Samarali va natijaviy operatsiyalar. Ishonchli moliyaviy hisobot. Qonun va me'yoriy hujjatlarga e'tibor	Ishonchli moliyaviy hisobot. Samarali va natijaviy operatsiyalar. Qonun va me'yoriy hujjatlarga e'tibor
Elementlari va zonalar	Zona: rejalashtirish va tashkillashtirish; yangi qabul qilish; yetkazib berish va qo'llab quvvatlash; monitoring	Elementlari: nazorat oralig'i; qo'l va avtomatika tizimi. Nazorat jarayonlari	Elementlari: nazorat oralig'i; menejment riski; nazorat yuzaga kelishi bo'yicha harakat; informatsiya va kommunikatsiya; monitoring	Elementlari: nazorat oralig'i; risk bahosi; nazorat yuzaga kelishi bo'yicha harakat; informatsiya va kommunikatsiya; monitoring
fokus	Informatsiya texnologiyalari	Informatsiya texnologiyalari	Barcha tashkilotlar	Moliyaviy hisobotlar
Ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash	Ma'lum bir davr uchun	Ma'lum bir davr uchun	Aynan shu davr uchun	Ma'lum bir davr uchun
Ichki nazorat uchun javobgar shaxs	Rahbariyat	Rahbariyat	Rahbariyat	Rahbariyat

¹ banker.ru saytida ilgari surilgan hujjatlardagi ichki nazorat tizimining konsepsiyalari

COSO standartlariga asosan ichki nazorat risklarning boshqarish tizimining asosiy qismi hisoblanadi, ammo ichki nazorat tizimi o‘z navbatida “Risk bahosi” komponentlarini ham o‘z ichiga oladi.

Ichki nazorat tizimining asosiy metodologik muammolari bugungi kunda quyidagilarni tashkil etadi:

- Menejmentning nazorat va boshqa funksiyalaridagi ichki nazorat yo‘nalishini ajratishdagi noaniqliklar;
- Ichki nazorat doirasidagi asosiy kesishuvlardagi noaniqliklar, ya’ni risklarni boshqarish, audit va ichki nazorat tizimidagi kesishuvlar;
- Ichki nazorat tizimining tashqi va ichki nazoratidagi noaniqliklar, ya’ni mikro, makro, mezo darajalardagi;
- Ichki nazorat tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan me‘yoriy hujjatlardagi kamchiliklar va noaniqliklar.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun avvalo ularni ma’no mohiyatini bog‘lanish darajasini aniqlab olish lozim bo‘ladi. Chunki e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular bir yoki bir necha bo‘g‘inlar tutash hisoblanadi.

Ichki nazorat tizimi menejmentning bitta funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lsa, risk boshqaruvi menejmentning barcha funksiyasi bilan bog‘liqdir.

COSO standartiga asosan ichki nazorat tizimi quyidagi maqsadlarga erishish uchun rejalashtirilgan:

- Korxonaning operatsion faoliyatidagi natijaviylik, samaradorlik, iqtisodiylik (ishlab chiqarish, moliya va aktivlarni yo‘qotishlardan himoyalash)
- Moliyaviy va boshqa hisobotlarning kerakliligi, o‘z vaqtidaligi va shaffofligi; Ichki nazorat tizimli, strukturali va o‘z vaqtida bo‘lishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida xalqaro standartlarga asoslangan ichki nazorat modellarining mazmuni chuqur tahlil qilinib, ularning O‘zbekiston korxonalari amaliyotiga moslashuvi baholandi. COSO, COBIT, SAC va SAS 55 kabi yondashuvlar ichki nazorat tizimini takomillashtirishda muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkinligi isbotlandi. Xususan, ushbu modellar axborot shaffofligini ta’minlash, risklarni aniq baholash va nazoratning uzluksizligini ta’minlashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Amaldagi ichki nazorat tizimlarini optimallashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Korxonalarda ichki nazorat tizimini xalqaro model va me‘zonlarga asoslangan holda qayta ko‘rib chiqish, bunda har bir tashkilotning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi lozim.
- Ichki nazorat funksiyalarini risklarga asoslangan yondashuv bilan uyg‘unlashtirish orqali tizim samaradorligini oshirish;
- Axborot texnologiyalariga asoslangan nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali nazorat jarayonining aniqligi va tezkorligini ta’minlash;
- Moliya va nazorat sohasi xodimlarining malakasini xalqaro sertifikatlash talablari asosida oshirish.

Mazkur takliflar ichki nazoratni zamonaviy bosqichga olib chiqish, tashkilotlarda moliyaviy shaffoflik va barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu orqali korxonalar o'z faoliyatida strategik samaradorlikka erishish imkoniga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (2001). Transforming the balanced scorecard from performance measurement to strategic management: Part 1. *Accounting horizons*, 15(1), 87-104.
2. Spira, L. F., & Page, M. (2003). Risk management: The reinvention of internal control and the changing role of internal audit. *Accounting, Auditing & Accountability Journal*, 16(4), 640-661.
3. Bianchi, A. C., & de Paula, L. B. (2024). Um Estudo sobre a avaliação do controle de concessão de acessos em gerenciadores de identidade (iam) em computação em nuvem pela auditoria de sistemas. *Revista GeTeC*, 19.
4. Taniberdiyev, A. A., & Jo'raqulov, S. B. (2024). Data pre-processing mechanism for analysis of economic indicators. *imras*, 7(11), 62-65.
5. To'xtaboyev, r. (2022). Suv ta'minoti va oqava suvlarni oqizish tizimlarida bosimli tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and innovation*, 1(A7), 29-32.
6. Ilmiy-amaliy, R. E. S. P. U. B. L. I. K. A., & ma'ruzalar, t. p. (2022). fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rni.
7. Tursunov, B. (2024). Analysis of the industrial sector in ensuring the financial security of textile enterprises: cluster methods. *Gospodarka i Innovacje.*, 49, 374-381.
8. Usmonov, B. (2025). Kapital aktivlarini baholashda modilyani-miller modelining ahamiyati. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 5(1), 178-183.
9. Burkhanov, A., & Tursunov, B. O. (2020). Main indicators of textile enterprises' financial security assessment. *Vlakna a Textil*, 27(3), 35-40.
10. Burkhanov, A. U., Tursunov, B. O., Uktamov, K. F., Imomov, J. O., Nosirov, J. T., & Akbarova, B. (2023, December). Ways and Prospects of Rational Use of Production Capacity in Ensuring Financial Security in Textile Enterprises In The Conditions of Digital Economy Transformation. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 234-242).
11. Khalikulova, Y. (2025). Analysis of the role of leasing and rental transactions in the activities of enterprises and organizations and across regions. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 5(1), 240-245.
12. Burkhanov, A. U., Tursunov, B., Uktamov, K., & Usmonov, B. (2022, December). Econometric analysis of factors affecting economic stability of chemical industry enterprises in digital era: In case of Uzbekistan. In *Proceedings of the 6th international conference on future networks & distributed systems* (pp. 484-490).

13. Холикулова, Ю. (2023). Iqtisodiyotimizda transport-logistika xizmatlari tashkil etilishi va uning rivojlanishi. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(02), 122–126. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp122-126>
14. Usmonov, B. (2021). Ways of effective capital management of joint stock company. International Finance and Accounting, 2021(4), 5.
15. Qurbonazar o'g'li, O. S. (2025). Improving the Analysis of Joint-Stock Company Profitability Indicators. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 5(04), 45-50.
16. Omanov, S. (2021). Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida ishlab chiqarish xarajatlari hisobining iqtisodiy mohiyati va asosiy jihatlari. Iqtisodiyot va ta'lim, (6), 72-78.